

O'ZBEK ILMIY DISKURSIDA REFERENTSIAL ZANJIRLAR: TUZILISHI, TURLARI VA MATN BIRLASHUVIGA TA'SIRI

Vohidova Barchinoy Baxtiyor qizi

Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 3-bosqich talabasi
ToshDO'TAU

barchinoyvohidova39@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zilola Xusainova

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek ilmiy diskursida referentsial zanjirlarning tuzilishi, turlari va matn birlashuviga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot uchta soha texnika, tibbiyot va gumanitar fanlar bo'yicha 30 ta ilmiy maqoladan iborat korpus asosida amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek ilmiy matnlarida to'liq nominal zanjirlar (35%) va demonstrativ zanjirlar (28%) ustunlik qiladi. Shuningdek, olmoshli zanjirlarning ulushi esa atigi 10% ni tashkil etadi. Referentsial uzilish holatlari ham tahlil qilinib, ularning asosiy sabablari va bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi. Natijalar o'zbek ilmiy yozuvining o'ziga xos referentsial strategiyasini belgilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *referentsial zanjir; anafora; referent; ilmiy diskurs; matn koheziyasi; o'zbek ilmiy uslubi; koreferentsiya; nominal zanjir.*

Kirish

Ilmiy matn – nutqning eng murakkab turlaridan biri. Unda tushunchalar orasidagi mantiqiy bog'liqlik, terminlarning izchil qo'llanilishi va referentsial aniqlik bir vaqtda talab etiladi. Aynan shu o'rinda referentsial zanjir tushunchasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, muallif biron tushunchani – metod, hodisa yoki natijani – birinchi bor tilga olgach, matn davomida unga turli vositalar orqali qayta-qayta murojaat qiladi [1;4].

Bu yerda ikki asosiy tushunchani farqlash zarur. **Referent** (lot. referens – “murojaat qiluvchi”) – matnda til ifodasining ishora qilayotgan real voqelik obyektidir: shaxs, narsa, hodisa yoki tushuncha [6;7]. Masalan, “*Tadqiqot usuli ishlab chiqildi*” jumlasida “tadqiqot usuli” birinchi bor tilga olingan referentdir.

Anafora (yun. ana – “orqaga” + phora – “ko‘tarish”) esa matnda oldinroq tilga olingan shu referentga qayta murojaat qiluvchi til birligidir [4;2]. Keyingi jumlada “*Mazkur usul samarali ekani isbotlandi*” deyilsa, “mazkur usul” iborasi avvalgi referentga ishora qiluvchi anaforik ifodadir. Referentsial zanjir esa shu ikki hodisaning – referent va anaforaning – matn davomidagi izchil guruhidan iborat [4;5].

O‘zbek tilshunosligida badiiy matn lingvistikasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud [11]. Biroq ilmiy diskursdagi referentsial munosabatlar mustaqil tadqiqot obyekti sifatida hali to‘liq o‘rganilmagan. Xususan, o‘zbek ilmiy matnlarida qaysi zanjir turlari ustunlik qilishi, ular soha bo‘yicha farq qiladimi va referentsial uzilishlar qaysi sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi – bularning barchasi hali aniq javob kutayotgan masalalar.

Ushbu tadqiqot o‘zbek ilmiy diskursidagi referentsial zanjirlarni korpus asosida tahlil qilishni maqsad qilib qo‘ydi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi marotaba o‘zbek ilmiy matnlarida referentsial strategiyalar soha qiyosida o‘rganilmoqda va mavjud nazariy modellar o‘zbek tiliga tatbiq etilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Referentsial zanjir tushunchasini ilmiy muomalaga kiritishda Halliday va Hasanlar tomonidan 1976-yildagi “*Cohesion in English*” nomli tadqiqoti burilish nuqtasi bo‘ldi [4]. Ular referentsiyani ya’ni bir obyektga matn davomida qayta-qayta murojaat qilish hodisasini kohezianing asosiy mexanizmi sifatida aniqladi. Ushbu yondashuv keyinchalik ilmiy matn tahlilida keng qo‘llanila boshladi.

Fox tomonidan 1987-yilda ingliz tilidagi ilmiy va og‘zaki matnlarda referentsial zanjir tuzilishini qiyosiy o‘rganib, ilmiy diskursda nominal zanjirlar og‘zaki nutqqa qaraganda ancha ustunlik qilishini empirik jihatdan isbotladi [3]. Ushbu tadqiqot natijasi ilmiy uslubning referentsial o‘ziga xosligini ko‘rsatgan birinchi yirik tadqiqot hisoblangan.

Grosz, Joshi va Weinsteinlar 1995-yilda markazlashtirish nazariyasi diskurs izchilligini referentsial zanjir nuqtayi nazaridan izohlaydi. Har bir diskurs segmenti o'zining markaziy referentiga ega bo'lib, keyingi segmentdagi anaforik ifoda aynan shu referentga ishora qilishi matn oqimini ta'minlaydi[5]. Ushbu nazariya keyinchalik avtomatik referent aniqlash tizimlarining nazariy asosiga aylandi.

Ariel tomonidan 1990-yilda ishlab chiqilgan qo'l ostidalilik nazariyasi anaforik shakllar ierarxiyasini kognitiv jihatdan asoslab, nol anafora eng yuqori, to'liq ot birikmasi esa eng past qo'l ostidalilikka ega [2]. Bu nazariyani o'zbek ilmiy matnlariga tatbiq etish qiziqarli natijalarga olib kelishi kutilmoqda, chunki o'zbek tili pro-drop tili sifatida nol anaforaga keng yo'l ochadi [9].

O'zbek tilshunosligida Nurmonov 2012-yilda sintaktik referentsiya munosabatlarini ko'rib chiqqan bo'lsa-da, tadqiqot nazariy tavsif darajasida qolgan, empirik korpus tahlili o'tkazilmagan [10]. Yo'ldoshev 2008-yilda badiiy matndagi anaforik munosabatlarni atroflicha o'rgangan, biroq ilmiy diskurs uning tadqiqoti doirasidan tashqarida qolgan [11]. Shamsiyev 1967-yilda va Rasulov 1985-yilda olmoshlar semantikasiga to'xtalgan, ammo referentsial zanjir tushunchasini maxsus ko'rib chiqmagan [7;8].

Mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, referentsial zanjirlar bo'yicha xorijiy tadqiqotlar yetarlicha bo'lsa-da, o'zbek ilmiy matnlari uchun maxsus, korpusga asoslangan tahlil hali yo'q. 1-jadval asosiy adabiyotlarni qiyosiy tarzda taqdim etadi:

1-jadval. Referentsial zanjir bo'yicha adabiyotlarning qiyosiy tahlili

Muallif(lar)	Yil	Asosiy hissa	Chegara	Manba
Halliday va Hasan	1976	Koheziya nazariyasi; referentsiya matn birlashtiruvchi asosiy kuch sifatida	Ingliz tiliga asoslangan	[4]
Fox	1987	Ilmiy diskursda nominal zanjirlar ustunligi birinchi bor empirik isbotlangan	Faqat ingliz tili ilmiy matnlari	[3]

Grosz, Joshi va Weinstein	1995	Markazlashtirish nazariyasi: diskurs markaziy referentining roli asoslangan	Hisoblash murakkabligi yuqori	[5]
Ariel	1990	Anaforik shakllarning qo'l ostidalilik ierarxiyasi kognitiv jihatdan asoslangan	Kognitiv yukni miqdoriy o'lchay olmaydi	[2]
Nurmonov	2012	O'zbek sintaksisida referentsial bog'liqliklar tahlil qilingan	Empirik korpus asosida emas	[10]
Yo'ldoshev	2008	O'zbek badiiy matnida zaminor (anafora) va katafora tahlil qilingan	Ilmiy diskurs qamrab olinmagan	[11]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot uchun o'zbek tilida yozilgan 30 ta ilmiy maqola tanlab olindi texnika, tibbiyot va gumanitar fanlar sohalari bo'yicha har biridan 10 tadan. Maqolalar 2016–2024-yillar oralig'ida nashr etilgan bo'lib, OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallardan tanlandi. Har bir maqoladan 3–4 paragraf ajratildi va ulardagi referentsial zanjirlar qo'lda belgilandi.

Belgilash mezonlari Halliday va Hasanlar 1976-yilda hamda Fox 1987-yilda tasniflash tizimiga asoslandi [3;4]. Belgilangan zanjir turlari: to'liq nominal, demonstrativ (mazkur/ushbu), sinonimik, olmoshli, nol (ellipsis) va ko'prik zanjirlar. Referentsial uzilish holatlari alohida kategoriya sifatida qayd qilindi.

Jami 578 ta referentsial zanjir tahlil qilindi. Ma'lumotlar tahlilida miqdoriy usul (chastota hisoblash, soha qiyosi) va sifat usuli (zanjir tuzilishi, uzilish sabablari) birgalikda qo'llanildi. Annotatorlar orasidagi kelishuv Cohen kappa koeffitsienti orqali o'lchandi; $\kappa = 0.69$ qiymat olindi – bu adabiyotda qoniqarli daraja hisoblanadi [12].

Referentsial zanjir tushunchasi va turlari

Referentsial zanjir – matn ichida bir xil obyektga ishora qiluvchi til ifodalarining ketma-ket guruhidir [4;5]. Ilmiy matinda bunday zanjirlar ayniqsa uzoq bo‘ladi: bir tushuncha yoki metod haqida o‘nlab paragraflar davomida so‘z yuritilishi mumkin. Zanjirning uzluksizligi matnning semantik izchilligini ta’minlaydi; uzilishi esa o‘quvchida tushunish qiyinligini keltirib chiqaradi.

O‘zbek ilmiy diskursida referentsial zanjirning bir necha asosiy turi kuzatiladi. 2-jadvalda ularning ta’rifi, o‘zbek ilmiy matnidagi misoli va manbalar keltirilgan:

2-jadval. O‘zbek ilmiy diskursidagi referentsial zanjir turlari

Zanjir turi	Ta’rif	O‘zbek ilmiy matnidagi misol	Manba
To‘liq nominal zanjir	Referentni har safar to‘liq nom bilan qaytarish	Tadqiqot usuli taklif etildi... Mazkur usul... Taklif etilgan usul...	[4, 6]
Demonstrativ zanjir	Mazkur / ushbu iborali qayta murojaat	Tajriba o‘tkazildi... Ushbu tajriba... Mazkur natijalar...	[4, 10]
Sinonimik almashtirish	Referentni yaqin ma’nodosh so‘z bilan ifodalash	Algoritm ishlab chiqildi... Usul sinovdan o‘tkazildi... Yondashuv...	[3, 6]
Olmoshli zanjir	Referentga olmosh orqali murojaat	Model ishlab chiqildi. U samarali ekani tasdiqlandi.	[2, 5]
Nol zanjir (ellipsis)	Eganing tushirib qoldirilishi – pro-drop hodisasi	[Ø] Namunalar olindi. [Ø] Qayta ishlandi. [Ø] Tahlil qilindi.	[9, 10]
Ko‘prik zanjir	Mantiqiy bog‘liq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmagan referentlar	Tajriba o‘tkazildi. Natijalar o‘rganildi. [mantiqiy bog‘liq]	[5, 6]

To‘liq nominal zanjirlarning keng qo‘llanilish sababi terminologik aniqlik talabi bilan izohlanadi. Ilmiy matnda bitta tushunchaning ikki xil shaklda kelishi o‘quvchida ikki xil referent borligiga shubha uyg‘otishi mumkin [4]. Shuning uchun

ko‘plab mualliflar “*taklif etilgan model... mazkur model... ushbu model...*” kabi izchil nomlashtirish tizimiga amal qiladilar.

Demonstrativ zanjirlar (mazkur, ushbu) o‘zbek ilmiy uslubining o‘ziga xos belgisi hisoblanadi. Bu iboralar faqat ilmiy va rasmiy uslubda keng qo‘llaniladi; badiiy yoki publitsistik matnlarda ularning o‘rni boshqa vositalar tomonidan egallangan [11]. Ular bir vaqtning o‘zida ham referentsial vazifani, ham uslubiy rasmiylikni ta’minlaydi.

Korpus tahlili natijalari

V-A. Soha bo‘yicha zanjir turlari chastotasi

Tahlil qilingan 30 ta maqoladagi 578 ta referentsial zanjirning soha bo‘yicha taqsimoti 3-jadvalda keltirilgan. Natijalar uchta soha o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi:

3-jadval. O‘zbek ilmiy matnlarida referentsial zanjirlar chastotasi (soha bo‘yicha)

Zanjir turi	Texnika (n=10)	Tibbiyot (n=10)	Gumanitar (n=10)	Jami ulush (%)
To‘liq nominal zanjir	41%	38%	26%	35%
Demonstrativ zanjir (mazkur/ushbu)	27%	31%	25%	28%
Sinonimik almashtirish	11%	14%	33%	19%
Olmoshli zanjir	12%	10%	9%	10%
Nol zanjir	9%	7%	7%	8%
Jami tahlil qilingan zanjirlar	218	197	163	578

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, to‘liq nominal zanjirlar texnika (41%) va tibbiyot (38%) sohalarida gumanitar fanlarga (26%) qaraganda ancha ko‘p uchraydi. Bu terminologik aniqlik talabining soha bo‘yicha farq qilishi bilan izohlanadi: texnik va

tibbiy matnlarda bir tushunchani ikki xil nom bilan atash xatolikka olib kelishi mumkin [3;5].

Sinonimik almashtirish esa gumanitar fanlarda (33%) texnika va tibbiyotga qaraganda uch barobarga ko'p uchraydi. Bu gumanitar fanlar matnlarida uslubiy xilma-xillikka intilish kuchliroq ekanligini ko'rsatadi. Bunday tafovut ikki farqli yozish an'anasining mavjudligidan dalolat beradi: aniq fanlarda bir termin – bir tushuncha tamoyili qat'iy saqlanadi, gumanitar fanlarda esa bu tamoyil ancha erkin qo'llaniladi.

V-B. Olmoshli zanjirlarning o'ziga xos holati

Olmoshli zanjirlarning ulushi barcha sohalarda bir xil darajada past – 9–12%. Bu topilma diqqatga sazovordir. Fox ingliz tilidagi ilmiy matnlarda olmoshli zanjirlar 23% ni tashkil etishini aniqlagan [3]. O'zbek ilmiy matnlaridagi ko'rsatkich shu raqamdan ikki barobarga kam. Buning ikkita asosiy sababi bor. Birinchidan, o'zbek ilmiy yozuvida olmosh qo'llash noaniqlik belgisi sifatida qabul qilinadi – mualliflar olmoshdan qochib, to'liq nom yoki demonstrativ iboraga murojaat qilishni afzal ko'radilar. Ikkinchidan, o'zbek tili pro-drop tili ekanligi sababli olmosh o'rnida nol zanjir ham faol ishlatiladi: fe'ldagi shaxs qo'shimchasi referentni yetarlicha ifodalaydi va alohida olmosh ortiqcha hisoblanadi [9;10].

V-S. Nol zanjirlar va pro-drop xususiyati

Nol zanjirlar (ellipsis) barcha sohalarda 7–9% ni tashkil etdi. Biroq ularning paydo bo'lish joylari tasodifiy emas: asosan metodologiya bo'limlarida, ketma-ket amallar tavsifida kuzatildi. “*Namunalar olindi.*”, “*Qayta ishlandi.*”, “*Tahlil qilindi.*” tipidagi zanjirlar bunga yaqqol misol. Bu holda fe'ldagi shaxs qo'shimchasi referentni aniq belgilaydi va alohida olmosh yoki to'liq nom talab etilmaydi [9].

Referentsial uzilish holatlari

Tadqiqot davomida jami 64 ta referentsial uzilish holati qayd qilindi – bu barcha tahlil qilingan zanjirlarning 11,1% ini tashkil etadi. Uzilish – zanjir

davomidagi referentsial munosabatning buzilishi bo'lib, o'quvchida noaniqlik yoki tushunish qiyinligi keltirib chiqaradi [4;5].

Eng ko'p uchraydigan uzilish – noaniq olmosh (37%). Bu holat asosan bir jumlada ikki yoki undan ortiq referent mavjud bo'lganda olmosh ishlatilganda yuzaga keladi. Masalan: “*Model va algoritmi taqqoslandi. U aniqroq natija berdi*” – bu erda “u” qaysi referentga ishora qilayotgani noma'lum [2;5].

Ikkinchi o'rinda haddan uzoq zanjir (31%) turadi. O'zbek ilmiy matnlarida bitta tushuncha o'nlab paragraflar davomida kuzatilishi mumkin. Biroq 12 jumladan keyin referentni eslatuvchi to'liq nomni qaytarmaslik o'quvchi diqqatini to'g'ri referentga yo'naltirishni qiyinlashtiradi. Tahlil qilingan matnlarda bunday uzoq zanjirlar ko'proq kirish va muhokama bo'limlarida uchradi.

Sinonim chalkashuvi (19%) terminologik izchillik masalasi bilan bevosita bog'liq. O'zbek ilmiy matnlarida, ayniqsa gumanitar sohalarda, bir tushunchaning bir necha sinonimi muqobil ravishda qo'llaniladi: “usul”, “metod”, “yondashuv” – ularning barchasi bir referentga ishora qilyaptimi yoki har biri o'ziga xos tushunchami, bu ko'pincha noaniq qoladi [11].

Muhokama

Tadqiqot natijalari bir qator muhim xulosalarga olib keladi. Birinchidan, o'zbek ilmiy diskursi o'ziga xos referentsial strategiyaga ega. To'liq nominal zanjir va demonstrativ zanjirlarning ustunligi bu uslub uchun terminologik aniqlikni saqlab qolish zarurati bilan izohlanadi [4, 10]. Bu strategiya ingliz tilidagi ilmiy matnlardan sezilarli farq qiladi: Fox ingliz ilmiy matnlarida olmoshli zanjirlar 23% ni tashkil etishini ko'rsatgan, o'zbek matnlarimizda esa bu ko'rsatkich 10% da qolmoqda [3].

Ikkinchidan, soha bo'yicha farqlar tadqiqotning muhim topilmasi hisoblanadi. Texnika va tibbiyot sohalarida to'liq nominal takrorning ustunligi terminologik aniqlik talabi qanchalik qat'iy ekanligini ko'rsatadi. Gumanitar fanlarda esa sinonimik almashtirish (33%) ancha keng qo'llaniladi. Ikki yondashuv bir-birini

inkor etmaydi; balki turli sohalardagi ilmiy yozuv an'alarining farqli talablarini aks ettiradi [3;5].

Uchinchi, referentsial uzilishlarning 11,1% li ulushi e'tiborga loyiq. Ayniqsa noaniq olmosh va haddan uzoq zanjir holatlari – ular birgalikda barcha uzilishlarning 68% ini tashkil etadi – ilmiy matn tayyorlash jarayonida muallif tomonidan ko'proq e'tibor talab etadi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi – korpusning kichikligi (30 ta maqola) va annotatsiya qo'lda amalga oshirilganligidir. Kelajakda beshta va undan ortiq soha qamrab olingan, avtomatik annotatsiya qo'llanilgan kattaroq korpus asosida tadqiqot o'tkazish bu xulosalarning umumlashtirilishini kuchaytiradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot o'zbek ilmiy diskursida referentsial zanjirlarning o'ziga xos tuzilishi va taqsimotini korpus asosida ko'rsatib berdi. 30 ta maqola va 578 ta zanjir tahlili asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

To'liq nominal zanjirlar (35%) va demonstrativ zanjirlar (28%) o'zbek ilmiy matnlarida asosiy referentsial vosita hisoblanadi. Olmoshli zanjirlarning ulushi (10%) ingliz tilidagi ilmiy matnlarga qaraganda ikki barobarga past – bu o'zbek ilmiy yozuvida terminologik aniqlikka ustuvorlik berilishining bevosita ko'rsatkichi [3, 4]. Referentsial strategiya soha bo'yicha farq qiladi: texnik sohada aniqlik, gumanitar sohada uslubiy xilma-xillik ustunlik qiladi. Referentsial uzilishlarning 11,1% li ulushi, ayniqsa noaniq olmosh va haddan uzoq zanjir holatlari, o'zbek ilmiy yozuvida e'tibor talab qiluvchi muammo sifatida aniqlanadi [2, 5].

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun uchta yo'nalish tavsiya etiladi: kattaroq va ko'p sohadagi korpus asosida tahlil o'tkazish, referentsial zanjirlarni avtomatik aniqlash tizimini o'zbek tiliga moslashtirish va o'zbek ilmiy yozuvi bo'yicha amaliy qo'llanma ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beaugrande R. de, Dressler W. *Introduction to Text Linguistics*. – London: Longman, 1981. – 288 p.
2. Ariel M. *Accessing Noun-Phrase Antecedents*. – London: Routledge, 1990. – 295 p.
3. Fox B. *Discourse Structure and Anaphora: Written and Conversational English*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 237 p.
4. Halliday M.A.K., Hasan R. *Cohesion in English*. – London: Longman, 1976. – 374 p.
5. Grosz B.J., Joshi A.K., Weinstein S. Centering: A Framework for Modelling the Local Coherence of Discourse // *Computational Linguistics*. – 1995. – Vol. 21, № 2. – P. 203–225.
6. Lyons J. *Semantics*. Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
7. Shamsiyev P. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. – 412 b.
8. Rasulov A. *O'zbek tilidagi olmoshlarning semantikasi*. – Toshkent: Fan, 1985. – 156 b.
9. Nurmonov A. *O'zbek tilining matn grammatikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 224 b.
10. Nurmonov A. *O'zbek tili sintaksisi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012. – 368 b.
11. Yo'ldoshev M. *Badiiy matn lingvistikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 272 b.
12. Cohen J. A Coefficient of Agreement for Nominal Scales // *Educational and Psychological Measurement*. – 1960. – Vol. 20, № 1. – P. 37–46.